

I Sho'BA. MEDIAMAKONDA KOMMUNIKATSIYA: TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR

SPORT TEMATIKASINI YORITISHDA TIL VA TAHRIR MASALALARI

Amrullo KARIMOV

*O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti dekani,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

Annotatsiya. *Sport jurnalistikasi – rekreativlikning ommabop yo'nalishi hisoblanadi. Bu mavzuga ko'pchilik qiziqadi. Shuning uchun medianing barcha tiplarida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada sport tematikasini yoritishda til va tahrir masalalari O'zbekistonning ikkita sayti misolida o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *sport jurnalistikasi, rekreativlik, ixtisoslashuv, tematika, sayt, til, tahrir.*

“Jurnalistikada ixtisoslashuv jarayoni kechayotgan hozirgi paytda sport yo'nalishi ham tobora ommalashib borar ekan, ilmiy jamoatchilik bu tipga alohida e'tibor bilan qaramoqda”¹. Jahon ommaviy axborot vositalarida sport eng keng va ko'p o'rganiladigan hamda tahlil qilinadigan mavzu hisoblanadi. Dunyoda sportning biror-bir turiga ixtisoslashgan matbuot nashrlari, telekanallar faoliyat olib boradi. Internetda ham sport mavzusi juda katta miqyosni egallaydi. Mamlakatimizda sportga ixtisoslashgan internet nashrlari jadal taraqqiy etmoqda. Internet uchun material yozuvchi jurnalistlar sport mavzusini tahlil qilish borasida, tajriba va mahoratni oshirib, o'z uslublariga ega bo'lishga harakat qilayotgan bo'lsalar-da, ularda ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. Sportga ixtisoslashgan jurnalistlarning hammasida ham mahorat yuqori emas. Mazkur maqolada ikki sayt – <https://sports.uz> va <https://championat.asia/uz> misolida sport tematikasini yoritishda til va tahrir masalalariga oid ba'zi jihatlarga e'tibor qaratamiz.

Dastlab <https://sports.uz> haqida. SPORTS.uz o'zbek va jahon sporti va futbol yangiliklari, shuningdek ularga doir suratlarni, videolarni va futbol statistikasini chop

¹Каримов А. Спорт журналистикаси – рекреативликнинг оммабоп йўналиши сифатида. – Тошкент: ЎзМУ хабарлари, №1/4, 2020. – Б. 204.

etuvchi sport portali hisoblanadi. Jonli efirlar, musobaqalar, qiziqarli sport yangiliklari, reportajlar, sharhlar beriladi. Ammo, materiallar tili va tahrirga oid ayrim mulohazalar mavjud. Quyida ularning ayrimlariga e'tibor qaratamiz. Masalan, *“Abbosbek Fayzullayev uchun legioner sifatidagi ilk mavsum muvaffaqiyatli o'tdi. O'tgan yilning avgustida “Paxtakor”dan SSKAga transfer qilingan 20 yoshli futbolchimiz qisqa fursatda “armiyachilar”ning yetakchi o'yinchiga aylandi”*². Mazkur gapning mazmuniga e'tibor qilinsa, bir qaraganda hech qanday kamchilik yo'qday. Ammo, aslida *“yetakchi o'yinchiga”emas, “yetakchi “o'yinchisiga” aylandi”* bo'lishi kerak.

2024 yil 27 may kuni <https://sports.uz> saytidan joy olgan *“Husanov o'rniga Umar!”*³ deb nomlangan materialni tahlil qilamiz. Texnik xato va tahrirga muhtoj bo'lgan mazkur materialda bir nechta qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan. Ayrimlariga e'tibor qaratamiz. *“Iste'dodli himoyachimiz Fransiya chempionati...”* deb boshlanuvchi jumlada *“championat”* so'zi ikkita p harfi bilan yozilgan. Yoki *“Abduqodir Husanovning oldida turgan eng katta vazifa “Lans”ning boshlang'ich tarkibiga kirib olishdan ibora”* jumlasidagi *“iborat”* so'zidagi t harfi o'rniga kirill alifbosidagi *ь- yumshatish belgisi* qo'yilgan.

Materialning keyingi jumlasini ham uslubiy g'aliz: *“Husanov mavsum davomida Deyver Machado, Fakundo Medina, Jonatan Gradit va Kevin Danso kabi asosiy himoya to'rtligidan birortasi o'yinda ishtirok eta olmay qolgan taqdirda maydonga tushirildi”*. Tushunishimizcha, aslida *“birortasi o'yinda ishtirok eta olmay qolgan taqdirda maydonga tushiriladi”* bo'lishi kerak.

*“Fayzullayev nufuzli sovrin bilan taqdirlandi”*⁴ deb nomlanuvchi materialda tinish belgilari noto'g'ri qo'llanilgan bir nechta holat aniqlandi. Ya'ni, *“Moskva shahrida “Winline Rossiya Premyer-ligasi qahramonlari”, deb nomlangan turli yo'nalishlar bo'yicha tanlovlar g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'ldi”* yoki *“SSKA hujumkor futbolchisi Abbosbek Fayzullayev “Mavsum kashfiyoti” nominatsiyasi bo'yicha g'olib, deb e'tirof etildi va maxsus sovrin bilan taqdirlandi*. Boshqa bir jumla ham

² <https://sports.uz/news/view/endi-bu-jamoani-fayzullaevsiz-tasavvur-qilib-bolmaydi-26-05-2024>, 28.05.2024.

³ <https://sports.uz/news/view/husanov-orniga-umar-26-05-2024>, 28.05.2024.

⁴ <https://sports.uz/news/view/fayzullaev-nufuzli-sovrin-bilan-taqdirlandi-27-05-2024>, 28.05.2024.

tushunarsiz qiyofa kasb etgan: *“Transferlarga ixtisoslashgan transfermarkt.world portali bugungi kunda o‘zbek futbolchisini besh million yevroga baholanmoqda”*. Jumla, *“Transferlarga ixtisoslashgan transfermarkt.world portali bugungi kunda o‘zbek futbolchisini besh million yevroga baholamoqda”* ko‘rinishida yoki *“Transferlarga ixtisoslashgan transfermarkt.world portali tomonidan bugungi kunda o‘zbek futbolchisi besh million yevroga baholanmoqda”* tarzida ifodalanishi lozim.

Sport yangiliklari, o‘zbek va jahon futbolining qiziqarli musobaqalari tafsilotini taqdim etib boruvchi <https://championat.asia/uz> saytida ham til va tahrir bilan bog‘liq bir qancha kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Yevropa chempionati tarixiga oid qiziqarli ma’lumotlar asosida yozilgan *“Stadiondagi o‘r-to‘polon, gaz ishlatgan politsiya hamda Rim Papasining bashorati — janjallar girdobidagi mamlakat mezbonligida o‘tgan Yevropa chempionatini yodga olamiz”*⁵ sarlavhali materialda *“ur-to‘polon”* so‘zi noto‘g‘ri yozilgan. *“Shuningdek, ushbu turnir uchinchi o‘rin uchun o‘yin o‘tkazilgan so‘nggisi hisoblanadi”* jumlasida ham uslubiy g‘alizlik mavjud. Bizningcha *“... ushbu turnir uchinchi o‘rin uchun o‘tkazilgan o‘yinlarning so‘nggisi hisoblanadi”* ko‘rinishida ifolanishi kerak edi.

Materialning keyingi xatboshisiga e’tibor qilamiz: *“Turnir mezboni uch yil ilgari aniqlangani sababli Italiya musobaqaga mezbonlik qilishga majbur edi. Aslida Italiyadagi vaziyat juda yomon edi...”*. Ketma-ket kelayotgan ikki gapni *“edi”* deb yakunlash noto‘g‘ri. Ulardan biriga shunga mos keladigan boshqa bir so‘z qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

*“Xavi va “Barselona” o‘rtasidagi shartnoma bugun bekor qilishini kutilmoqda”*⁶. Mazkur xabarda ham uslubiy g‘alizlik seziladi. Ya’ni, mediamatn aslida *“Xavi va “Barselona” o‘rtasidagi shartnoma bugun bekor qilinishi kutilmoqda”* bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, sport tematikasida qalam tebratayotgan jurnalistlar til va matn tahririga oid bilimlarini muntazam mustahkamlab borishlari, imlo qoidalariga rioya qilishlari, sport atamalarini qo‘llashda ehtiyotkor bo‘lishlari talab etiladi. Bundan tashqari

⁵ <https://championat.asia/uz/news/stadiondagi-or-topolon-gaz-ishlatgan-policiya-hamda-rim-papasining-bashorati-janjallar-girdobidagi-mamlakat-mezbonligida-otgan-evropa-chempionatini-yodga-olamiz>, 28.05.2024.

⁶ <https://championat.asia/uz/news/barselonadan-haydalgan-xavi-yana-bir-bor-jamoasini-sevishini-isbotladi>, 28.05.2024.

sport atamaları lugʻatini yaratish borasida kelgusida ularga yordam zarurligi koʻrinib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Каримов, Амрулло Ашурович. Место и роль ток-шоу на каналах национального телевидения Узбекистана. Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета 3 (2012): 299-306.
2. Каримов А., Спорт журналистикаси – рекреативликнинг оммабон йўналиши сифатида, Тошкент, ЎзМУ хабарлари, №1/4, 2020. – Б. 204.

JURNALISTIK MATN TAHRIRINING ETIK TAMOYILLARI

Dilfuza TESHABAYEVA

*filologiya fanlari doktori, professor
Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti*

***Annotatsiya.** Mediamatnlarning tahrir jarayoni oʻziga xos jihatlardan iborat. Mediada til vositalarini tanlash shaklining murakkabligi bilan baholanadi. Medianing ijtimoiy rolini baholash murakkab boʻlishiga qaramay tahrir bir qator aspektlarni oʻzida mujassam qiladi va ulardan biri tahrirning etik jihatidir. Matnning kommunikativ funksiyasi muharrirdan adresat bilan aloqa oʻrnatuvchi usullarga eʼtiborni qaratishni talab etadi va filologik bilim asosida muharrirning ijtimoiy muloqot tizimidagi rolini anglash imkonini beradi.*

***Kalit soʻzlar:** media tili, uslub, mediamatn, adabiy tahrir, etika, tahrirda xatoliklar, muharrir.*

Media tili adabiy tilimizning intellektual va emotsional sohalarini emotsional-baholash mazmuni bilan yoʻgʻrilgan soʻz, soʻz birikmalari, gaplar kabi til va nutq birliklari bilan boyitib boradi, ifodalilik imkoniyatlarini kengaytiradi, ularni shaklan aniq va ixcham, mazmunan va ekspressiv keng qamrovli nominativ va baholash birliklariga aylantiradi.

OAV faqat tilni emas, balki nutqni ham taraqqiy ettiradi, yangicha koʻrinishlarda uning shakllanishiga xizmat qiladi. OAV doirasidagi tipiklashtirish adabiy til mulkiga ham aylanib boradi. OAV grammatika imkoniyatlaridan oʻziga xos ravishda, uning taraqqiyoti uchun foydalanadi. Jurnalistika fikrni emotsional ifodalashga intilgani sari